

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI



Elektron ilmiy-ommabop jurnal

2025

1 -SON

(+998) 50-005-45-69

https://t.me/demografiya_mehnatbozori

demografiya_mehnat_bozori@mail.ru

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
1-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,

Axmedov Durbek Quدراتillaevich, i.f.d., professor

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,

Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,

Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,

Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,

Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor

Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.

Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor

Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor

Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)

Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor

Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)

Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD

Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent

Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD

Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD

Asqarova Muhabbat Ibraximovna

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Умурзаков Баходир Хамидович Дунёдаги демографик ривожланиш ҳолати ва истиқболлари.....	4
Xudoykulov Sadirdin Karimovich, Abdurahimov Sarvar Nasrilloevich Kambag'allikni qisqartirish, aholi turmush tarzini yaxshilash — farovon hayot demakdir.....	18
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, Musayev Bekzod Murodovich Mirzacho'l iqtisodiy rayon shaharlarining ijtimoiy-demografik rivojlanishi va muammolarini hal etish yo'llari.....	29
Мамадалиева Хафиза Холдаровна Демографическое развитие и его влияние на экономический рост страны: теоретический и эмпирический анализ.....	38
Abdullayev Asliddin Jumaydullayevich, Burxonov Sardorjon Nasulloyevich Enhancing educational effectiveness through the application of innovative communication marketing strategies in higher education institutions.....	49
Yavmutov Dilshod Shoyimardonqulovich, Burxonov Sardorjon Nasulloyevich The role of industrial greening in ensuring economic stability in our country.....	63
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, Omanova Kamola Botir qizi Jizzax viloyati qishloq aholi manzilgohlari joylanishining geografik xususiyatlari (turlari va shakllari).....	73
Shakarov Zafar Gafforovich Иш жойлари мониторинги амалга оширишнинг хорижий давлатлар тажрибалари.....	82
Burxonov Sardorjon Nasulloyevich Leveraging marketing strategies to boost national economic competitiveness.....	91
Sherxolov Olimjon Iskandarovich, Musayev Bekzod Murodovich Samarqand viloyati aholi soni dinamikasi.....	100
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning iqtisodiy asoslari.....	107
Asqarova Muhabbat Ibraximovna Hozirgi zamon ilmiy-amaliy yondoshuvlarni innovatsion tarzda shakllantirish va rivojlantirish...	116
Burxonov Sardorjon Nasulloyevich, Dustmurodov Diyorbek Xo'dayor o'g'li Tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy strategiyani shakllantirish.....	125
Нуманова Мадина Латиф қизи Инсон капитали ва барқарор ўсиш: Ўзбекистон ҳудудларининг рақобатбардошлигини оширишдаги роли.....	131
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li Yaponiyada uy xo'jaligi transfertlarining iqtisodiy ahamiyati va uni O'zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari.....	143
Ibragimova Mehrangiz Isomiddinovna Ta'limda modulli o'qitish texnologiyasi.....	151
Ro'ziyeva Anora Muhammadiyor qizi Kompyuter jinoyatlari va kiberxavfsizlik: raqamli jamiyatda huquqiy, texnologik va ijtimoiy jihatlar.....	156
Mamatqulova Mushtariy Komiljon qizi Mehnat munosabatlarida moliya-soliq mexanizmlari orqali norasmiy bandlikni kamaytirish choralari.....	165
Yunusova Ug'ilo'yl Bolqiboy qizi Ovqatlanish korxonalarida ofitsantlar xizmat sifatini oshirish.....	172

SAMARQAND VILOYATI AHOLI SONI DINAMIKASI

Sherxolov Olimjon Iskandarovich,
geografiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
O'zbekiston-Finlyandiya Pedagogika instituti

E-mail: osherxolov@gmail.com,

ORCID: 0009-0002-7718-8737

Musayev Bekzod Murodovich
geografiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

E-mail: bekzodmusayev85@gmail.com,

ORCID: 0000-0001-6258-6340

Annotatsiya. Mazkur maqolada Samarqand viloyatining aholi soni dinamikasi yoritilgan. Respublika aholisining o'zgarishi ma'muriy-hududiy birliklar bo'yicha tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur viloyatning shahar va tumanlari kesimida aholi soni dinamikasi hamda unga ta'sir etuvchi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa omillar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Aholi soni, tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish, migratsiya, mexanik harakat.

ДИНАМИКА ЧИСЛЕННОСТИ НАСЕЛЕНИЯ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Шерхолов Олимжон Искандарович,
доктор философии по географическим наукам (PhD), доцент
Узбекско-Финского педагогического института

Мусаев Бекзод Мурадovich
доктор философии по географическим наукам (PhD), доцент
Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В статье рассматривается динамика численности населения Самаркандской области. Проанализированы изменения численности населения Республики по административно-территориальным единицам. Изучалась также природные, социально-экономические, политические и другие факторы влияющие на динамика численности населения в городах и сельских местностях этого региона.

Ключевые слова: Население, рождаемость, смертность, естественный прирост, миграция, механическое движение.

POPULATION DYNAMICS OF THE SAMARKAND REGION

Sherkholov Olimjon Iskandarovich,

Doctor of Philosophy in Geographical Sciences (PhD),

Associate Professor

The Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

Musaev Bekhzod Muradovich

Doctor of Philosophy in Geographical Sciences (PhD),

Associate Professor

The Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

Abstract. *The article examines the population dynamics of the Samarkand region. Changes in the population of the Republic by administrative-territorial units are analyzed. Natural, socio-economic, political and other factors influencing the population dynamics in cities and rural areas of this region were also studied.*

Keywords: *Population, birth rate, mortality, natural increase, migration, mechanical movement.*

Kirish. Aholi sonining ko'payishi yoki kamayishi ham uning o'sishi deb ataladi. Bunda o'sishning qaysi tomonda o'zgarishi muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi sonining o'sishiga asosan tabiiy ko'payish, migratsion jarayonlar, urbanizatsiya omillari, shuningdek, hududning tabiiy sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi, siyosiy hamda ekologik omillari ta'sir ko'rsatadi. Har qanday hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda albatta shu hudud aholisining nafaqat hozirgi sonini, balki kelgusida qanday o'zgarishini bilish ham muhim hisoblanadi. Chunki, har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy maqsadi aholining yaxshi yashashi, ularga sifatli xizmat ko'rsatish, doimiy ish o'rnini bilan ta'minlash yotadi.

Mazkur maqolada Respublika ma'muriy birliklari ichida aholi soni bo'yicha yetakchi o'rinni yillar davomida egallab kelayotgan Samarqand viloyati aholisi soni o'zgarishi tadqiq qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Aholi o'sishi, uning tabiiy va mexanik harakati, aholi joylashuvining hududiy jihatlari, aholi punktlarini tadqiq etishga oid tadqiqotlar U.Ayzard, H.H.Baranskiy, O.A.Konstantinov, V.V. Pokshishevskiy, Y.G.Saushkin, H.H.Kolosovskiy, S.A.Kovalev, R.M.Kabo, V.G.Davidovich va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan. Respublikada esa mazkur tadqiqotlar bilan M.Q.Qoraxonov, M.R.Mullajonov, O.B.Ata-

Mirzayev, G.R.Asanov, A.S.Soliyev, T.I.Raimov, M.R.Bo'riyeva, Z.N.Tojiyeva, M.A.Kadirov, Sh.Z.Jumaxanov, N.J.Embergenov va boshqalar shug'ullanishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lum hududda yashovchi aholi haqida fikr yuritish, uni tahlil qilish uchun uning soni, tarkibi, hududiy taqsimlanishi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish kerak[1]. Har qanday hududda aholi o'sishga yuqorida keltirilganidek tabiiy sharoit, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ekologik omillar ta'sir ko'rsatadi. Respublikamizda aholi soni doimiy o'sishda davom etayotgan hududlardan biri Samarqand viloyati hisoblanadi. Mazkur viloyat O'zbekistonning markaziy qismida har tomonlama qulay geografik o'rinda joylashganligi hamda tarixi uzoq davrlarga borib taqalganligi sabab respublika ma'muriy-hududiy birliklari ichida aholi soni bo'yicha yetakchi o'rinni ancha yillardan beri bermay kelmoqda. Har qanday hudud aholi sonining o'sishiga birinchi navbatda tug'ilish darajasining yuqoriligi, shu o'rinda o'lim darajasining pasayib borishi sabab bo'ladi. Mazkur viloyatda aholining asosiy qismi qishloq joylarda istiqomat qilishi ham aholi o'sishiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Tahlil va natijalar. Samarqand viloyatining 2000 yilda aholisi soni 2670,3 ming kishini tashkil etib, respublika ma'muriy-hududiy birliklari ichida birinchi o'rinni band qilgan. Mazkur yilda aholi soniga ko'ra keyingi o'rinlarni Respublikamizning Farg'ona va Toshkent viloyatlari, oxirgi o'rinlarni esa Jizzax, Navoiy hamda Sirdaryo viloyatlari egallagan. O'sha yili Samarqand viloyati aholisi soni respublika aholisining 10,9 foizini tashkil etgan.

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, ma'muriy birliklar ichida o'rganilgan yillar davomida barcha hududlarda aholining soni o'sishda davom o'tgan. Eng yuqori aholi o'sishi 2000 yilga nisbatan 2023 yilda Surxondaryo viloyatida kuzatilgan (161,6%). Lekin, aholi ulushini hududlar bo'yicha foiz hisobida olinganda Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Buxoro, Navoiy, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida biroz pasayganligini ko'rish mumkin. Ushbu hududlarda aholi ulushining kamayishiga asosan migratsion jarayonlar sabab bo'lgan. Chunki, cho'l hududlarida joylashgan ma'muriy birliklarda iqlimning cho'llashib borishi ortidan iqlim migratsiyasi kuzatilayotgan bo'lsa, aynan Toshkent viloyatiga poytaxtning ta'siri kattadir. Ya'ni, Toshkent shahrining maydoni viloyat hisobiga kengayishi o'z-o'zidan aholi soniga ham ta'sir ko'rsatgan. Mazkur yillar davomida yuqori aholi ulishi Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand viloyatlari hamda vodiylar viloyatlarida kuzatilgan bo'lib, bunda tabiiy ko'payishning ahamiyat kattadir. Xorazm viloyati esa o'zgarish kuzatilmagan.

1-jadval

**Respublika ma'muriy-hududiy birliklarining aholi soniga ko'ra
foiz hisobidagi ulushi**

T/R	Ma'muriy-hududiy birliklar	Yillar, foiz hisobida					
		2000	2005	2010	2015	2020	2023
	O'zbekiston Respublikasi	100	100	100	100	100	100
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	6,1	6,0	5,8	5,7	5,6	5,5
2.	Andijon viloyati	8,9	9,0	9,1	9,2	9,2	9,2
3.	Buxoro viloyati	5,8	5,8	5,8	5,8	5,7	5,6
4.	Jizzax viloyati	4,0	4,0	4,0	4,0	4,1	4,1
5.	Qashqadaryo viloyati	8,8	9,1	9,3	9,5	9,7	9,7
6.	Navoiy viloyati	3,2	3,1	3,0	2,9	2,9	2,9
7.	Namangan viloyati	7,9	8,0	8,1	8,2	8,3	8,3
8.	Samarqand viloyati	10,9	11,0	11,1	11,3	11,4	11,4
9.	Surxondaryo viloyati	7,1	7,3	7,4	7,6	7,8	7,8
10.	Sirdaryo viloyati	2,6	2,6	2,6	2,5	2,5	2,5
11.	Toshkent viloyati	9,6	9,4	9,2	8,9	8,7	8,3
12.	Farg'ona viloyati	10,9	10,9	11,0	11,1	11,1	11,0
13.	Xorazm viloyati	5,4	5,5	5,6	5,5	5,5	5,4
14.	Toshkent shahri	8,7	8,2	8,0	7,6	7,6	8,2

Jadval: Respublika statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Samarqand viloyatida aholi sonining ko'p bo'lishiga nafaqat keyingi yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, balki qadimdan geografik o'rnining qulayligi ham sabab bo'lgan. Viloyatning uch tomondan tog'lar bilan o'ralganligi, asosan nam havo massalari to'siqsiz kirib keladigan g'arb tomonining ochiqqligi, nisbatan qulay iqlimni vujudga keltirgan. Shu jihatini e'tiborga olib, buyuk sarkarda Amir Temir ham bu go'zal maskanni poytaxt qilib tanlagan. Bunday tashqari, viloyat Zarafshon daryosi va irmoqlari bilan sug'orilishi hamda atrofidagi Zarafshon, Nurota, Turkiston tog'laridan boshlanadigan buloqlar va

soylarning mavjudligi aholining o'troq hayot kechirishiga imkon yaratgan. Hududdagi tuproq ham unumdor bo'lib, qishloq xo'jaligini yuritishga munosib xizmat qilib kelmoqda. Shuningdek, tadqiqot obyekting iqtisodiy geografik o'rni ham har tomonlama qulay hisoblanadi. Chunki, qadimdan Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida, bugun kunda esa mazkur yo'lning zamonaviy ko'rinishi hisoblanadigan xalqaro avtomobil va temiryo'llar kesishmasida hamda Respublika markazida joylashganligi uning geografik o'rniga xos imkoniyatidir. Shu kabi omillar sababli ishlab chiqarishning jadal o'sishi, hududda Urgut erkin iqtisodiy zonasining tashkil etilishi, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash maqsadida namunaviy uy-joylar, Qorasuv massivining bunyod etilishi, hozirgi kunda esa buning davomi sifatida Shirin shaharchasi qurilayotganligi o'z-o'zidan viloyat aholi soni o'sishiga ijobiy ta'sir etmoqda. Bunda nafaqat tabiiy ko'payish, balki migratsiya jarayonlar natijasida ham aholi soni o'sishda davom etmoqda.

2-jadval

Samarqand viloyati aholi soni dinamikasi (ming kishi hisobida)

Ma'muriy-hududiy birliklar	2010-yil	2015-yil	2020-yil	2024-yil	2010-2024 yillar davomida aholi sonining foiz hisobidagi o'zgarishi
Samarqand viloyati	3 119,0	3 514,8	3 877,4	4 275,3	137,1
Viloyat bo'ysinuvidagi shaharlar:					
Samarqand	399,7	513,6	546,3	593,4	148,5
Kattaqo'rg'on	77,8	83,2	89,5	95,6	122,8
tumanlar:					
Oqdaryo	121,2	143,5	158,7	176,2	145,4
Bulung'ur	150,0	168,1	186,3	205,6	137,1
Jomboy	135,3	152,0	171,9	192,9	142,6
Ishtixon	195,0	227,4	253,3	280,6	143,9
Kattaqo'rg'on	219,9	246,7	272,3	298,3	135,7
Qo'shrabot	103,5	117,9	131,1	143,8	138,9
Narpay	170,2	193,9	212,4	230,5	135,5
Nurobod	116,8	135,8	149,9	164,9	141,1
Payariq	202,9	225,3	249,5	278,4	137,2
Pastdarg'om	277,9	318,5	353,2	389,7	140,2
Paxtachi	121,8	132,1	143,8	154,0	126,4
Samarqand	283,2	228,3	251,5	277,3	97,9
Toyloq	154,7	179,8	200,5	225,0	145,5
Urgut	389,2	448,7	507,0	569,1	146,2

Jadval Respublika statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Mazkur viloyatning ma'muriy-hududiy birliklari ichida 2010-yil aholi soniga ko'ra Samarqand shahri oldingi o'rinni band qilgan bo'lsa, undan keyingi o'rinlarni Urgut va Samarqand tumanlari, oxirgi o'rinni esa Kattaqo'rg'on shahri va Qo'shrabot tumanlari egallagan. Tadqiqot obyektining aholisi soni 2010-2024 yillar davomida 137,1 foizga o'sgan bo'lsa, yuqori o'sish Samarqand shahri hamda Urgut, Toyloq va Oqdaryo tumanlarida kuzatilgan. Ushbu hududlarda aholi sonining o'sishiga nafaqat tabiiy ko'payish, balki qulay geografik o'rni, ayniqsa Toyloq va Oqdaryo tumanlarining viloyat markaziga yaqinligi natijasida migratsion harakat ham sabab bo'lgan. Urgut erkin iqtisodiy zonasi (2017-y) tashkil etilganligi ham mazkur tumanda aholi o'sishiga munosib hissa qo'shmoqda. Bundan tashqari, ushbu tumanning qo'shni Tojikiston Respublikasiga chegaradoshligi ham migratsion jarayonlarda faolligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davrida faqatgina viloyatning ma'muriy birliklari ichida Samarqand tumanida aholi soni 2010-2015 yillarda kamaygan. Bunga esa 2011-yilda mazkur tuman hududining bir qismi Samarqand shahri tarkibiga o'tkazilishi asosiy sabab bo'lgan. O'sha yildan keyin mazkur tuman aholisi soni ham muttasil o'sib kelmoqda. Viloyatning eng chekka g'arbiy qismida joylashgan Paxtachi tumanida yillar davomida aholi soninig o'sishi boshqa hududlarga nisbatan sekin borayotganligini ko'rish mumkin. Ushbu tuman aholining barcha ehtiyojlarini, asosiysi aholi bandligini Samarqand viloyati markazining uzoqligi sababli qo'shni Navoiy viloyati markazi qondiradi. Shu boisdan tuman aholisi asosan mazkur viloyatda doimo yashash va ishlash uchun ko'chib ketishi aholi o'sishida muhim omil hisoblanadi. Kattaqo'rg'on shahrida aholi sonining o'sishi ham past darajada. Chunki, shaharga atrofda ko'chib keluvchilar ko'p emas, shu bilan birgalikda aholining bandligi, ayniqsa xotin-qizlarning ish bilan samarali ta'minlanganligi, milliy tarkibi xilma-xilligi bois tug'ilish darajasi ham yuqori emas.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand viloyati aholisi doimiy ravishda ko'payib boradi. Ayniqsa viloyat markazi va unga yaqin hamda chegaradosh tumanlarda tabiiy ko'payish bilan birga migratsion harakat ham ustun bo'lsa, qolgan hududlarda tabiiy ko'payish hisobiga aholi soni o'sishi saqlanib qoladi. Bir so'z bilan aytganda viloyat aholisining o'sishi demografik jarayonlar hamda iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan ko'proq bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Асанов Г.Р Аҳоли географияси. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – 29 б.
2. Бо‘риева М.Р., Тоjiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – Т.: Tafakkur, 2011. – 156 б.
3. Kadirov M.A., Sherxolov O.I. Improvement of Regional System of Settlement of Samarkand Region // International Journal of Trend in Scientific Research and Development/ Impact factor of the journal – 4.101. India 2018.-1725-1727.
4. Kadirov M.A., Sherxolov O.I. The impact of socio-economic geographical and historical conditions on the population of Samarkand region // Ежемесячный научный журнал «Austria-science» 1 часть №18. Impact factor of the journal – 1.26. Austria 2018. –P. 9-11.
5. Kadirov M.A., Sherxolov O.I. Age composition of population and labor resources of Samarkand region in Republic of Uzbekistan // International Scientific Journal “Science and world”. Section 2. Geography, Impact factor of the journal – 0.325, Czech Republic 2018. –P. 44-46.
6. Kadirov M.A., Sherxolov O.I. Samarqand viloyati aholi joylashuvining muammolari va istiqbollari // SamDU Ilmiy axborotnomasi. №5-son. Samarqand, 2018. – 181-185 б.
7. Ibragimov, L., Sherxolov, O., Musayev, B., Boboyev, S., Sobirova, M., & Boratova, G. (2024). Industrial development and assessment of its impact in Samarkand region-a GIS mapping-based study. In E3S Web of Conferences (Vol. 590, p. 06002). EDP Sciences.
8. Tojiyeva Z.N., Sherxolov O.I. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning zamonaviy muammolari: Jamiyatni hududiy tashkil etish // «Zamonaviy geografik tadqiqotlar: nazariya, amaliyot, innovatsiya. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya». Samarqand, 2023. B. 470-473.
9. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari. – g.f.d. diss – Т.: O‘zMU, 2017. – 206 б.
10. Sherxolov O.I. Navoiy viloyati aholisi o‘sishi va joylanishining geografik muammolari. Fal.fan. dok. ...diss-T.,2023.-152 б.
11. Sherxolov O.I. Navoiy viloyati aholi soni dinamikasi va joylashuvi // O‘zbekiston geografiya jamiyati X-syezdi materiallari. Toshkent, 6-7 dekabr 2019. – 191-194 б.

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

